

KOREYS TILIDA KELISHIKLARNING AHAMIYATI VA ROLI

Maftuna Baxramova

O'qituvchi Alfraganus universiteti

Ushbu maqolada koreys tilida kelishik kategoriyasining lingvistik mohiyati, grammatik, semantik va pragmatik vazifalari tahlil qilinadi. Koreys tilidagi kelishiklar 조사 (josa) orqali ifodalanib, gapdagi sintaktik munosabatlarni aniqlashda muhim rol o'ynaydi. Maqolada koreys va o'zbek tillarida kelishiklarning ifodalanish usullari qiyosiy jihatdan o'rganilib, ularning o'xshash va farqli tomonlari yoritiladi. Tadqiqot natijalari koreys tilini chet tili sifatida o'qitishda kelishiklarning ahamiyati yuqori ekanini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: koreys tili, kelishik tushunchasi, kelishik qo'shimchalari, semantik munosabat,

В данной статье анализируется категория падежа в корейском языке, её грамматические, семантические и прагматические функции. Падежные отношения в корейском языке выражаются с помощью послелогов (조사), которые играют важную роль в определении синтаксических связей в предложении. В статье проводится сравнительный анализ падежной системы корейского и узбекского языков, выявляются их сходства и различия. Результаты исследования могут быть использованы в методике преподавания корейского языка как иностранного.

Ключевые слова: Корейский язык, понятие согласования, суффиксы согласования, семантическая связь.

This article examines the linguistic nature of the case system in the Korean language and analyzes its grammatical, semantic, and pragmatic functions. In Korean, case relations are expressed through postpositional particles known as josa, which play a crucial role in determining syntactic relations within sentences. A comparative analysis of the case systems in Korean and Uzbek is conducted, highlighting their similarities and differences. The findings demonstrate the significant role of case markers in teaching Korean as a foreign language.

Keywords: Korean language, concept of agreement, agreement suffixes, semantic relationship.

Tilshunoslikda kelishik kategoriyasi otlarning gap tarkibida boshqa so'zlar bilan bo'lgan sintaktik munosabatlarni ifodalovchi asosiy grammatik kategoriya sifatida qaraladi. I. Iksop va S. R. Ramsey ta'kidlaganidek, koreys tilida grammatik munosabatlar asosan so'z tartibi orqali emas, balki maxsus grammatik ko'rsatkichlar yordamida ifodalanadi⁶.

Agglutinatив tillar sirasiga mansub koreys tilida kelishik munosabatlari 조사 (chosa) deb ataluvchi yuklamalar orqali amalga oshiriladi. Ho Ungning fikriga ko'ra, 조사 koreys

⁶ Lee & Ramsey, S. Robert. The Korean Language 2000, 112-b.

tilining grammatik tizimida markaziy o'rin tutib, gapning sintaktik va semantik tuzilishini belgilaydi⁷. Shu sababli koreys tilida kelishiklarning ahamiyatini o'rganish nazariy va amaliy jihatdan muhim masala hisoblanadi. Kelishiklar so'zning gapdagi sintaktik vazifasi, semantik munosabati va mantiqiy urg'usini aniqlab beradi.

Bundan tashqari kelishikning quyidagi funksiyalari ham mavjuddir:

- So'z tartibidan ko'ra kelishik ko'rsatkichlariga tayanadi
- Gap ma'nosini aniqlashtiradi
- Nutqning mantiqiy tuzilishini belgilaydi.

Koreys tilida kelishiklar mustaqil qo'shimchalar sifatida emas, balki otlardan keyin keluvchi 조사 orqali ifodalanadi. 이익섭ning ta'kidlashicha, 주격 조사 (이/가) egani, 목적격 조사 (을/를) esa harakat ob'yektini aniqlashda asosiy grammatik vosita hisoblanadi⁸.

Semantik jihatdan kelishiklar harakatning yo'nalishi, manbayi va joylashuvini aniqlashtiradi. Masalan, 예 va 에서 조사larining farqlanishi harakatning yo'nalishi yoki manbaini ko'rsatadi. Kim Minsu ushbu hodisani koreys tilidagi fazoviy munosabatlarning asosiy belgisi sifatida baholaydi⁹.

Endi koreys tilida kelishiklarning tasnifiga chuqurroq nazar soladigan bo'lsak, ular ikki turga bo'linadi:

1. Asosiy kelishiklar (격조사)

Bosh kelishik 주격 이/가 - Egani bildiradi

To'ldiruvchi 목적격 을/를 - Obyektni bildiradi

Qaratqich 소유격 의 - Egalikni bildiradi

O'rin-payt 부사격 에, 에서 - O'rin, ege, ro O'rin, yo'nalish, sabab

Qo'shma 공동격 와/과 - Birgalik

2. Yordamchi kelishiklar (보조사)

보조사는 grammatik emas, balki pragmatik va stilistik ahamiyatga ega:

은/는 - mavzu va kontrast

도 - qo'shimcha ma'no

만 - chegaralash

까지 - urg'u kuchaytirish uchun ishlatiladigan qo'shimchalardir.

⁷ 허웅 한국어 조사 연구. 서울대학교 출판부. 1999, 45-b.

⁸ 이익섭국어문법론. 서울: 학연사., 2005, 78-b.

⁹ 김민수. 현대 한국어 문법 연구. 2012, 91-b..

Kelishiklar koreys tilida gap strukturasi tayanchi hisoblanadi. Bu kelishiklar gapning sintaktik strukturasi aniqlab, soʻzlar oʻrtasidagi munosabatni belgilaydi. Koreys tilida soʻz tartibi nisbatan erkin boʻlsa-da, gapning maʼnosi kelishik koʻrsatkichlari orqali aniqlanadi:

동생이 밥을 먹는다. (Ukam ovqatni yeyapti)

밥을 동생이 먹는다. (Ovqatni ukam yeyapti)

Mazkur gaplarda soʻz tartibi oʻzgargan boʻlsa ham, kelishiklar sababli mazmun oʻzgarmaydi. Bu holat koreys tilida kelishiklarning grammatik ustuvorligini koʻrsatadi. Semantik jihatdan esa, bir xil feʼl turli kelishiklar bilan turlicha maʼno kasb etadi:

학교에 가다 – maktabga borish

학교에서 나오다 – maktabdan chiqish

Bu yerda 에 / 에서 kelishiklari harakat yoʻnalishi va manbasini farqlaydi.

Kelishiklarning pragmatik va kommunikativ vazifasiga toʻxtaladigan boʻlsak, mavzu va ega farqini bildiruvchi ikki qoʻshimcha (은/는 vs 이/가) nutqning axborot tuzilishi bilan bogʻliq. Lee & Ramsey fikricha, 은/는 mavzuni ajratib koʻrsatish va taqqoslash vazifasini bajaradi, 이/가 esa yangi axborotni taqdim etadi¹⁰. Ushbu xususiyat oʻzbek tilida grammatik shaklda ifodalanmaydi va asosan kontekst orqali anglashiladi.

- 이/가 – yangi axborotni taqdim etadi

- 은/는 – mavzu va taqqoslashni bildiradi.

Bu koreys tilining eng muhim xususiyatlaridan biridir:

비가 옵니다. – fakt

비는 옵니다. – taqqoslash, kontrast

Bu hodisa koreys tilida axborot tuzilishi bilan bevosita bogʻliq.

Qiyosiy tahlil shuni koʻrsatadiki, oʻzbek tilida kelishiklar suffikslar orqali ifodalansa, koreys tilida ular postpozitiv birliklar orqali beriladi. Bu holat koreys tilida kelishiklarning kommunikativ yuklamasini kuchaytiradi¹¹.

Kelishiklar koreys tilida gap strukturasi tayanchi hisoblanadi. 은/는 va 이/가 farqi koreys tilida eng murakkab nuqta va eng dolzarb hisoblanadi. Kommunikativ kompetensiya kelishiklarni toʻgʻri qoʻllashga bogʻliq. Shu sababli kelishiklar koreys tilini oʻqitish metodikasida markaziy mavzu va TOPIK grammatik baholashning asosiy elementi sanaladi.

Koreys tilida kelishiklar nafaqat grammatik munosabatlarni, balki nutqning mantiqiy, semantik va pragmatik tuzilishini belgilovchi asosiy lingvistik vosita hisoblanadi. Ularning toʻgʻri qoʻllanilishi tilning tabiiyligi va kommunikativ samaradorligini taʼminlaydi.

¹⁰ Lee & Ramsey, S. Robert. The Korean Language, 2000, 145-b.

¹¹ Sohn, Ho-min. Korean Language in Culture and Society 2006, 172-b.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. 김민수. 현대 한국어 문법 연구. 2012, 91-b.
2. 이익섭국어문법론. 서울: 학연사., 2005, 78-b.
3. 허웅 한국어 조사 연구. 서울대학교 출판부. 1999, 45-b
4. Lee & Ramsey, S. Robert. The Korean Language 2000, 112-b, 145-b.
5. Sohn, Ho-min. Korean Language in Culture and Society 2006, 172-b.